

Koronavirus. Dunyoda kasallik tarqalishi bilan bog'liq vaziyat qanday?

Koronavirus infeksiyasi virusining yer yuzi bo'ylab tarqalish sur'ati yuqoriligicha saqlanib qolmoqda. JSST ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi 5 oy ichida dunyo bo'ylab 15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan yoshlar orasida COVID-19 bilan kasallanish darajasi uch barobarga ko'paydi. Ekspertlarning ta'kidlashicha, yoshlar niqob taqish va ijtimoiy masofani saqlash kabi yoshlar ehtiyot choralariga beparvo qaramoqda.

"Reuters" xabar berishicha, JSST tomonidan 6 million zararlanish holati tahlil qilingan. Tahlil natijalari asosida tashkilot mutaxassislari 24-fevraldan 12-iyulgacha bo'lgan davrda 15-24 yoshdagilar orasida COVID-19 virusini yuqtirganlar soni 15 foizgacha oshdi, degan xulosaga kelishdi. Ushbu yosh guruhida yuqtirilganlar foizi 4,5 edi.

Tashkilot mutaxassislarining ma'lum qilishicha, ushbu davrda 5 yoshdan 14 yoshgacha bo'lganlar orasida kasallikka chalinganlar soni 0,8 foizdan 4,6 foizga oshdi, bu esa maktablar ochilgandan so'ng infeksiya tarqalishining yangi to'lqini kelishi borasida xavotir tug'dirmoqda.

Markaziy Osiyo (Afg'oniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston)da kasallanish ulushi butun dunyoda aniqlangan holatlar statistikasining haliyam 1,09 foizini tashkil qilmoqda. Tuzalغانlar ko'rsatkichi nisbati 1,2, o'lim holati nisbati esa 0,6 foizga teng.

So'nggi kunlarda Qozog'iston va Qirg'izistonda koronavirus tarqalish sur'ati pasayishi kuzatilmoqda. Shunga qaramay, ushbu mamlakatlarda kuzda mavsumiy kasalliklar - gripp va ORVI holatlari ko'payishi tufayli koronavirus infeksiyasining ikkinchi to'lqinining oldini olish bo'yicha faol choralar ko'rilmogda.

Statistika

"Worldometers" ma'lumotiga ko'ra, 5-avgust soat 17:00 holatiga ko'ra dunyoda kasallanganlarning umumiy soni 18 million 728,7 ming kishini tashkil etdi, 704,8 mingdan ortiq odam vafot etgan.

Kasallanish holati eng ko'p qayd etilgan davlatlar: AQSH - 4 million 918,8 ming, Braziliya - 2 million 808,1 ming va Hindiston - 1 million. 910,7 ming kishi.

O'lim holati: AQSH - 160 323, Braziliya - 96 096, Meksika - 48,869, Buyuk Britaniya - 46 299, Hindiston - 39 856. COVID-19 dan davolanganlarning umumiy soni 11 941 353 kishiga yetdi, bu umumiy miqdorning 63,7 foiziga teng.

Markaziy Osiyodagi vaziyat

Qozog'istonda kasallanganlarning umumiy soni 94,882 nafar, 67 031 kishi sog'aygan, 1058 fuqaro vafot etgan. "Kazinform" XAA xabar berishicha, Idoralararo komissiyaning yig'ilishi bo'lib o'tib, unda Qozog'istonning COVID-19 qarshi ehtimoliy vaktsinalar majmuasidan foydalanish masalalari ko'rib chiqildi.

Xabar qilinishicha, yig'ilish davomida Sog'liqni saqlash vazirligi va Tashqi ishlar vazirligi koronavirusga qarshi vaktsinani sotib olish bo'yicha dastlabki shartnomalarni tuzish yuzasidan bajarilgan ishlar to'g'risida hisobot berdi. Bosh vazir o'rinbosari Ye.Tugjanov davlat idoralariga vaktsinatsiya qilinadigan guruhlarni aniqlash, zarur xarajatlarni hisoblash va Qozog'istonning "Covax Facility" dasturida ishtirok etish imkoniyatlarini tahlil qilish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Koronavirus infeksiyasiga qarshi mahalliy vaktsinani ishlab chiqarishni jadallashtirish, shuningdek, joriy yil oxiriga qadar Jambil viloyatidagi Biologik xavfsizlik muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzurida vaktsinalar ishlab chiqarish bo'yicha biofarmatsevtika zavodini ishga tushirish zarurligi alohida qayd etildi.

Qirg'izistonda kasallikka chalinganlarning umumiy soni 38 110 ga yetdi, 29 513 kishi tuzaldi, 1 438 nafar fuqaro vafot etdi. Bugungi kunga kelib, mamlakat epidemiologlari Oksford universitetidagi hamkasblari bilan birgalikda epidemiologik vaziyatni prognozlashni qayta tahlil qildilar.

Profilaktika tibbiyoti ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi huzuridagi Respublika infeksiyani nazorat qilish ilmiy-amaliy markazining epidemiologi A.Kravsov kuzda mamlakatda iyul oyida bo'lgani kabi kasallanishning cho'qqisi kutilmoqda, deb ta'kidladi. Uning so'zlariga ko'ra, tahlil shuni ko'rsatdiki, mamlakatda kasallanishning cho'qqisi oktyabr oyida bo'lishi kutilmoqda. Shu sababli epidemiolog kuzda mamlakatda "ikkinchi to'lqin" bo'lishiga xolis tayyor bo'lish kerakligiga ishonadi.

Hukumatda Bosh vazir K.Boronov ishtirokida brifing bo'lib o'tdi. Vazirlar Mahkamasi rahbarining so'zlariga ko'ra, Qirg'izistonda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik boshlandi, fuqarolarni gripp va ORVIga qarshi emlash rejalashtirilgan. K. Boronov ta'kidlashicha, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari mavsumiy kasalliklarga qarshi bepul emlanadi. Vaksinalar sentyabr oyida keladi va emlash ixtiyor ravishda amalga oshiriladi.

Tojikistonda bemorlarning umumiy soni - 7 646 nafar, 6 356 kishi sog'aydi, 61 fuqaro vafot etgan.

Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti(FAO) COVID-19 pandemiyasining ta'siri tahliliga bag'ishlangan mintaqaviy axborotni e'lon qildi, deb xabar beradi "Sputnik". Hujjatda joriy yilda Tojikistonda noqulay ob-havo sharoiti hamda urug' va o'g'itlar kabi resurslarni olishdagi qiyinchiliklar tufayli bug'doy yetishtirish hajmi kamayishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Biroq, FAOning qishloq xo'jaligi savdo siyosati bo'yicha iqtisodchisi Chen Fanning ta'kidlashicha, oziq-ovqat mahsulotlari zanjirlarining buzilishi va narxlarning ko'tarilishi tufayli uy xo'jaliklari o'z byudjetlarining qariyb yarmini oziq-ovqatga sarflamoqda. Ushbu holat, ayniqsa, aholining zaif guruhlari, xususan, Tojikistondagi pensionerlar uchun dolzarbdir. Shuni inobatga olib, FAO Tojikiston, Qirg'iziston, Armaniston, Bosniya va Gersegovina, shuningdek Chernogoriya aholisining zaif qatlamlari uchun oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun maxsus ijtimoiy yordam paketlarini shakllantirdi, deb qo'shimcha qilishdi tashkilotda.

Dunyodagi so'nggi tendensiyalar

JSST Bosh direktori T. Gebreyesus tibbiy niqob nafaqat virus tarqalishini oldini oluvchi himoya vositasi, balki atrofda qilarga nisbatan g'amxo'rlik va hamjihatlikning namoyonidir, deb ta'kidladi. Shu bilan birga, NTV kanali xabariga ko'ra, JSST rahbari ushbu tashkilot xalqaro marafon - turli tibbiy niqoblardagi odamlarning fotosuratlarini uchun tanlovni boshlaganini e'lon qildi. Ta'kidlanishicha, Yaponiya ushbu musobaqada g'alaba qozonish uchun asosiy nomzodlardan biri hisoblanadi, ya'ni u yerda nafaqat virusdan himoyalaydigan, balki 8 tilda suhbat olib borish imkonini beradigan niqob yaratilgan, buning uchun mobil ilovani yuklash kifoya.

"RIA Novosti" Turkiya sog'liqni saqlash vaziri F. Kodjiga tayanib xabar berishicha, chet ellik sayyohlar uchun chegaralar ochilgandan so'ng uzoq vaqt ichida birinchi marta mamlakatning kurortlarida COVID-19 infeksiyasi bilan zararlanish holatlari keskin ko'payishi kuzatilmoqda. Vazir "Twitter"da ta'kidlaganidek, Turkiya xavfli oqibatlarining oldini olish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishi kerak.

JSST Rossiya vaksinatsiga shubha bilan qaramoqda. "Tass.ru" xabar berishicha, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining rasmiy vakili K. Lindmayer tashkilotning dori ishlab chiqish bo'yicha qoidalari va bosh prinsiplariga tashkilotga a'zo bo'lgan barcha davlatlar amal qilishi kerakligini ta'kidladi. Uning so'zlariga ko'ra, yaqin kelajakda Rossiyada koronavirus keltirib chiqargan COVID-19 kasalligiga qarshi vakcina ro'yxatga olinishi mumkinligi haqida rasmiy ma'lumotga ega emas.

Vaksina va dori ishlab chiqish bo'yicha chora-tadbirlar, tadqiqotlar

Eronning "IRNA" agentligi xabar berishicha, JSSTning Erondagi vakili K.Xamelman mamlakat tibbiy va farmatsevtika uskunalarini ishlab chiqarish bo'yicha eng maqbul salohiyatga erishganini aytib, ushbu imkoniyatlar Eron sog'liqni saqlash tizimiga COVID-19 koronavirus infeksiyasi pandemiyasini yengishda yordam beradi, deb ta'kidladi. JSST vakili so'zlariga ko'ra, Eron koronavirusga qarshi kurashda amalga oshirgan eng muhim chora-tadbirlaridan biri bu laboratoriyalarning afzalliklaridan foydalanish orqali

imkoniyatlar yaratish va diagnostika salohiyatini oshirish bo'ldi.

Isroil immunologi, professor Ya.Berkun "RIA Novosti"ga bergan intervyusida odamlarni koronavirusga qarshi shoshma-shosharlik bilan emlash kerakmasligi haqida ogohlantirdi. Uning so'zlariga ko'ra, koronavirusga qarshi vaksina keng miqyosda joriy etilishidan oldin, u turli aholi toifalari uchun samarador va xavfsiz bo'lishiga ishonch hosil qilish maqsadida minglab odamlar ishtirokida sinovlarning 3-bosqichini yakunlash kerak.

"Euronews.com" yozishicha, Buyuk Britaniya Sog'liqni saqlash vazirligi rahbariyati koronavirus xavfini inkor etgayotganlarning va vaksinatsiyaga shubha bilan qarayotganlarning "ovozi" baland yangrayotganidan tashvishlanmoqda. Vaksinatsiyaga shubha bilan qarayotganlarning ta'kidlashicha, emlash insonning tabiiy immunitetiga shikast yetkazadi, ommaviy va majburiy emlash esa tanlash erkinligini buzadi.

Gamaleya nomidagi milliy epidemiologiya va mikrobiologiya ilmiy markazi direktori A.Ginsburgning so'zlariga ko'ra, kuz-qish mavsumida jamoaviy immunitetning pasayishi koronavirusga qarshi emlash zaruriyatining asosiy mzonlaridan biridir.

Uning so'zlariga ko'ra, jamoaviy immunitet tushunchasi nafaqat shakllangan immunitetni, balki quyosh va vitaminlar hisobiga ko'payadigan interferonlarni ishlab chiqarish bilan belgilanadigan immunitetni ham o'z ichiga oladi.

COVID-19 ning salbiy oqibatlarini kamaytirish va karantindan chiqish choralari

"VVS Africa" xabariga ko'ra, Nigeriyadagi o'rta maktablarning bitiruvchi sinflarida darslar koronavirus tarqalishi sababli mamlakatdagi barcha maktablar yopilganidan deyarli 4 oy o'tgach qayta boshlandi. Ta'kidlanishicha, niqob taqish, ijtimoiy masofani saqlash va qo'l yuvish vositalaridan foydalanish mamlakatning barcha maktablarida majburiydir.

Germaniyaning Shimoliy Reyn-Vestfaliya federal o'lkasida jamoat transportida niqob taqish tartibini buzganlik uchun jazo kuchaytirilmoqda.

Avtobuslar va elektr transport vositalariga niqob taqish talabini buzganlarga 150 yevro miqdorida jarima ko'zda tutilgan bo'lib, jarima birinchi qoidabuzarlik aniqlanganishi bilan oq olinadi. Ta'kidlanishicha, shu paytgacha jamoat transportida niqob taqish talabini buzganlik uchun jazo birinchi ogohlantirishdan keyin qo'llanilgan edi.

"Rheinische Post" mahalliy nashr xabar berishicha, mamlakat transport vaziri X. Vyustning so'zlariga ko'ra, og'iz va burunni himoya qilmagan har qanday kishi keyingi bekatda tushishi va yo'l haqini to'lashi kerak. Shuningdek, u belgilangan talablarni buzuvchilar bilan tushuntirish ishlari boshqa bo'lmaydi, deb ta'kidladi.

Fransiyada Parij shahrining meri A.Idalgo epidemiyaning ikkinchi to'lqinini to'xtatish uchun poytaxtning ayrim hududlarida niqob taqish tartibini joriy etish niyatida ekanligi haqida deb xabar beradi "Le Figaro". Shu nuqtayi nazardan, Parij merining sog'liqni saqlash masalalari bo'yicha o'rinbosari parijliklarning 90 foizi ko'chalarda niqoblarini taqmaydilar, deb ta'kidladi. Nashrning ta'kidlashicha, qaror yaqin kunlarda qabul qilinishi kerak. Tegishli qaror savdo ko'chalari, Sena qirg'oqlari, park va bog'lar hamda yopiq bozorlarga nisbatan qo'llaniladi.

Shu bilan birga, yuqoridagi nashr xabar berishicha, Fransiya Madaniyat vazirligi bayonotiga ko'ra, 5 mingdan ziyod kishi ishtirok etadigan tadbirlarga 15-avgustdan boshlab sanitariya protokoliga amal qilgan holda ma'murlar tomonidan ruxsat berilishi mumkin.

Daniyaning "DR" radiostansiyasi xabar berishicha, mamlakat bosh epidemiologi K.Myolbak Daniyada karantin tadbirlarining yumshashiga va tungi klublar ochilishini nazarda tutuvchi 4-bosqichga o'tishiga qarshi ekanini ma'lum qildi. Ayni paytda Daniya hukumati tungi klublarni ochishni ko'zda tutuvchi cheklov choralari bekor qilishning keyingi bosqichiga o'tishni muhokama qilmoqda. Bundan tashqari, yaqin dam olish kunlaridan boshlab tadbirlarda ishtirok etish ruxsat etilgan odamlarning soni 100 dan 200 ga

ko'patiriladi.

Isroil Sog'liqni saqlash vazirligi Ukraina Rosh xa-Shana bayrami uchun Umanga boradigan hasid ziyoratchilarni qabul qilmasligi kerak, deb hisoblaydi. Bu haqda mamlakat Sog'liqni saqlash vazirligining xalqaro munosabatlar departamenti direktori A. Shulmanga tayanib, "Deutsche Welle" gazetasi xabar bermoqda. Uning so'zlariga ko'ra, ko'p sonli ziyoratchilarning kichik bir hududda to'planishi koronavirus infeksiyasining yangi to'liqini keltirib chiqarishi mumkin. Avvalroq, Isroilning Ukrainadagi elchisi, mamlakatning bosh ravnini, Uman meri ziyoratchilarni koronavirus tarqalishi havfi tufayli Ukrainaga bormaslikka chaqirdi.

"Kommersant" nashrining ma'lumotiga ko'ra, Rossiyadagi "Vnukovo" va "Domodedovo" aeroportlari yo'lovchilarni koronavirus uchun ekspress-testlashni ishga tushiradi. Avvalroq, shunga o'xshash test tizimi "Sheremetyevo" aeroportida joriy etilgan edi. Ta'kidlanishicha, aeroportlarda koronavirusni diagnostika qilish uchun "EMG" Rossiya-Yaponiya kompaniyasi tomonidan Rossiya to'g'ridan-to'g'ri investitsiya fondi ko'magida ishlab chiqarilgan test tizimlari qo'llaniladi.